

JINOIY HUQUQQA XILOFLILIK QILMISHGA IJTIMOIIY XAVFLILIK**DARAJASI**

Abdushukurov Shuxrat Xolmatovich
Muxim topshiriqlar boyicha inspektori

Annotatsiya

Jinoiy huquqqa xiloflik qilmishga ijtimoiy xavflilik darajasi haqida bo'lib Huquqqa xiloflik jinoiy qilmish tufayli huquqiy normalarning buzilishini ifodalashi haqida.

Kalit so'zlar: Huquqqa xiloflik, huquqiy normalar, blanket dispozitsiyalari, ongli xulq-atvori.

Jinoyat tushunchasini izohlashda ijtimoiy xavflilik va huquqqa xiloflik jinoyatning asosiy va bir-biriga aloqador belgilari ekanligini ko'rish mumkin. Jinoyatda ijtimoiy xavflilik belgisining mavjud emasligi o'z navbatida huquqqa xiloflikning mavjud emasligini bildiradi, ya'ni faqat jinoyat qonuni bilan ijtimoiy xavfli deb topilgan qilmishlarga huquqqa xilof hisoblanadi.

Jinoiy huquqqa xiloflik qilmishga ijtimoiy xavflilik darajasini berib, aynan shu daraja orqali qilmish "jinoyat" xususiyatiga ega bo'ladi. Aynan ijtimoiy xavflilik va huquqqa xiloflik belgilari birgalikda qilmishning jinoiyliги va u uchun jinoiy javobgarlik asosini belgilovchi omil hisoblanadi. Formal jihatdan jinoyat tarkibi mavjud bo'lsa ham, lekin jinoyat qonunida belgilanmagan ijtimoiy xavfli qilmishlar jinoyat deb hisoblanmaydi. Shuning uchun har doim ham ijtimoiy xavflilik qilmishni jinoyat deb belgilash uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Bu borada huquqqa xiloflik belgisining ustunligini Jinoyat kodeksi 14-moddasi 1- qismidagi jinoyat tushunchasiga berilgan ta'rif ham izohlab beradi. Shuning uchun ham "huquqqa xiloflik" belgisi - "jinoyatning formal belgisi" deb ataladi.

Huquqqa xiloflik jinoiy qilmish tufayli huquqiy normalarning buzilishini ifodalaydi. Huquqqa xiloflik shaxs tomonidan Jinoyat kodeksi Maxsus qismida ko'rsatilgan normalarning buzilishi demakdir. Shunday qilib, "huquqqa xiloflik" o'rniga "qonunga xiloflik" tushunchasi ham ishlatilishi mumkin. Lekin jinoyat belgilarini aniq-lashda ko'proq "huquqqa xiloflik" tushunchasi qo'llaniladi.

Sababi: birinchidan, qonunga xiloflik faqat qonunda ko'rsatilgan normalarni o'z ichiga olsa, huquqqa xiloflik qonun osti me'yoriy hujjat normalarini ham o'z ichiga oladi. Ayniqsa, Jinoyat kodeksi Maxsus qismi blanket dispozitsiyalari haqida gap ketganda huquqqa xiloflik belgisi ko'proq to'g'ri kelishini ko'rishimiz mumkin;

ikkinchidan, huquqqa xiloflik tushunchasi jinoyatni boshqa huquqbuzarliklardan farqlash uchun jinoyat huquqning boshqa huquq sohalari bilan bog'liqlikda bo'lishini ifodalaydi; uchinchidan, har qanday huquqqa xilof xatti-harakat qonunning buzilishiga olib keladi.[4]

Demak, yuqoridagi fikrlarni inobatga olib quyidagicha xulosa qilish mumkin:

- a) jinoiy huquqqa xiloflik – jinoyatning formal-yuridik belgisidir;
- b) bu belgi ijtimoiy xavflilik va aybning mavjudligi belgilarini keltirib chiqaradi;
- c) huquqqa xiloflik bevosita qonuniylik prinsipidan kelib chiqadi;
- d) huquqqa xiloflik Jinoyat kodeksi Umumiy qismidagi holatlarni e'tiborga olgan holda jinoyat huquqi normalarida ko'rsatilgan qilmishlarni sodir etishni taqiqlashdan iborat;
- e) bu belgi har doim jinoyatning ijtimoiy xavflilik belgisi bilan bog'liq bo'ladi;
- f) huquqqa xiloflik qonun chiqaruvchi tomonidan qilmishga jinoyat huquqiy baho berilishini ifodalaydi.

Aybning mavjudligi (aybdorlik) belgisi – qonun chiqaruvchi tomonidan Jinoyat kodeksida jinoyat tushunchasiga aybga jinoyat belgilaridan biri sifatida ta'rif berilgan. Aybning mavjudligi belgisi jinoyat huquqining “ayb uchun javobgarlik prinsipi”dan kelib chiqib, “Nullum crimen, nulla poena sine culpa”, ya'ni “Aybsiz jinoyat ham, jazo ham yo'q” degan qoidani o'z ichiga oladi[10].

Yetkazilgan zarardan qat'i nazar, xatti-harakat qasddan yoki ehtiyotsizlik orqasida sodir etilgan bo'lmasa, bunday qilmish jinoyat deb hisoblanmaydi.

Har bir huquq sohasi u yoki bu shaxsning ongli faoliyatiga turli sharoitlardan qat'i nazar, ta'sir qiladi. Jinoyat huquqi aql-idrok va erk bilan bog'liq holda sodir etilgan xulq-atvorni tartibga soladi. Shaxs-ning g'ayrihuquqiy ongli xulq-atvori esa uning aybdor deb topilishida asos bo'ladi. O'zi qilmishining ijtimoiy xavfliligini va uning xusu-siyatini ongli ravishda anglagan hamda uni boshqara olgan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi mumkin. Aybsiz jinoiy javobgarlik bo'lishi mumkin emas, ya'ni shaxsning aybi qonunga xilof bo'lmasa, shaxs aybdor, uning qilmishida esa aybning shakllari mavjud hisoblanmaydi.

Jazo tushunchasi jinoyat tushunchasiz biron-bir mazmun kasb etmaydi, ya'ni jazo haqiqatda sodir etilgan jinoyatning oqibati hisoblanadi. Agar qilmish jinoyat huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarmasa, bunday qilmish jinoyat deb hisoblanmaydi.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat belgilari qilmishning jinoiyligini belgilovchi asosiy mezon bo'lib, jinoyatning moddiy (tashqi) belgisi – “ijtimoiy xavflilik” bo'lsa, jinoyatning formal belgisi – “huquqqa xiloflik” deb hisoblanadi, shuningdek, jinoyatning “aybning mavjudligi” va “jazoga sazovorlik” belgilari huquqqa xiloflik belgisidan kelib chiqadi[2].

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Уголовное право. Общая часть. Учебник // Под. ред. Н.И. Ветрова, Ю.И. Ляпунова. - М.: Новый Юрист, КноРус, 1997. – С. 125.
2. Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть: Учебник для вузов.–М.: ЮНИТИ – ДАНА, Закон и право, 1999. – С. 46, 47
3. Уголовное право. Общая часть. Учебник // Под. ред. Н.И. Ветрова, Ю.И. Ляпунова. - М.: Новый Юрист, КноРус, 1997. – С. 125, 126.

4. Ляпунов Ю.И. Общественная опасность деяния как универсальная категория советского уголовного права. – М., 1989, -С.39.
5. Ветров Н.И. Уголовное право. Общая часть: Учебник для вузов. –М.: ЮНИТИ – ДАНА, Закон и право, 1999. – С. 48.

